



## ABDULLA QODIRIY IJODIDA LEKSIK SEMANTIK MUNOSABATLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852899>

Djalilova Shoirra

*Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 52- IDUM Ona tili adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Abdulla Qodiriy ijodida leksik semantik munosabatlarning ifodalanishi haqida munozaralar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tilshunoslik, leksikologiya, semantik tahlil, allegoriya.

Badiiy matnda ko'chimlar turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ularni ko'pchilik adabiyotlarda "troplar" deb yuritiladi. "Ko'chimlar deyilganda, adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning, umuman, ko'chma ma'noda ishlatilishi"<sup>92</sup> nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Tasviriy vositalarning deyarli barchasida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat tushuncha yotadi. Metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, allegoriya, jonlantirish, prafraza kabi usullar ko'chimlarning turlaridir.

Metafora - narsa-buyum, voqea - hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Mumtoz adabiyotshunoslikda metafora "istiora" deb yuritiladi. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: 1. Lingvistik metafora, 2. Xususiy muallif metaforalari mavjuddir.<sup>93</sup>

Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa. Bunday metaforalar, asosan, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi. Masalan: *odamning oyog'i - stolning oyog'i*.

Uslubiy metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa- tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa tushunchaga o'xshatiladi. Masalan: *shirin tabassum, shirin gap, yengil tabassum, yengil nigoh*.

Metonimiya - voqea - hodisa, narsa buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi. Masalan: *Saroy tinch uyquda tun yarim*. Bu misolda saroy so'zi orqali. "Saroydagi odamlar" ma'nosi ifodalangan.

Sinekdoxa - butun bo'lak munosabatiga asoslanuvchi ma'no ko'chishiga aytiladi. Adabiyotlarda "ko'plik o'rnida birlik yoxud birlik o'rnida ko'plik shakllarini qo'llash

<sup>92</sup> Шомаксудов А., Расулов И., Кунгуров Р., Рустамов Х. Узбек тили стилистикаси. -Тошкент: 1974, 236- бет.

<sup>93</sup> Кунгуров Р. Узбек тилининг тасвирий воситалари. -Тошкент: Фан; 1977



yo'li bilan ham sinekdoxalar yaratilishi mumkin. Masalan, *qo'limni kesib oldim, daraxtlar sarg'aydi* birikmalarida butunning nomi bilan bo'lak; *tirnoqqa zor, jamoaning qo'li baland keldi* kabi birikmalarda qismning nomi butun bilan ifodalanayapti.

Kinoya deb, til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, kesatq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chimga aytiladi. Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa "ironiya" atamasi ostida umumlashtiriladi.

**O'xshatish**- badiiy tasvir vosifalaridan biri bo'lib, obyektning orazli, ta'sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi. Sana'tkor qahramonlarni tasvirlashda, ularning o'ziga xos individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy holatlarni aks ettirishda, tabiat manzaralarini tasvirlashda o'xshatishlardan foydalanadi. O'xshatish deb, bir predmet yoki hodisani ikkinchi bir predmet yoki hodisa bilan taqqoslanganda ularning shakli yoki mazmun tomondan obrazli o'xshashligiga aytiladi. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetik - grammatik traktlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsurdan tarkib topishi ta'kidlangan, ya'ni:

- 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt;
- 2) unga o'xshash bo'luvchi narsa yoki obyekt;
- 3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi;
- 4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi.<sup>94</sup>

O'xshatishlarning hosil bo'lishi zamirida muallifning kommunikativ maqsadi, uning voqelik faktlariga bo'lgan munosabati, ularni lisoniy va nolisoniy omillarga tayangan holda baholashga intilishi yotadi. Tilimizda nutqning turli ko'rinishlarida, xususan, og'zaki so'zlashuvda va badiiy nutqda, qisman publististik matnlarda ham tez-tez uchraydigan *"muzday suv"*, *"qo'yday yuvosh"*, *toshday qattiq"*, *"paxtaday yumshoq"*, *"tulkiday ayyor"*, *"terakday uzun"* kabi bir qator o'xshatishlar nutqimizda ko'p qo'llanilganligi, tasvir obyektining ma'lum bir sifatiga izohlashi bilan cheklanib qolganligi uchun obrazlilik, ta'sirchanlik xususiyatini deyarli yo'qotgan. Ular bugungi kunda **an'anaviy o'xshatishlar** hisoblanadi. Badiiy matnlar esa kutilmagan, kitobxon ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi, obrazlilik hosil qiluvchi vositalar hisobiga poetik qimmat kasb etadi. Tilimizda "O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni:

- 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar;
- 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar<sup>95</sup> farqlanadi.

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorlilik bilan

<sup>94</sup> Qobuljonova G. Metafora va o'xshatish. O'TA, 1999/ 5 son, 53b

<sup>95</sup> Mahmudov N. O'xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son,19-24b





o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavalantiradi"<sup>96</sup>.

Biz bu bitiruv malakaviy ishimizda Abdulla Qodiriy asarlari misolidagi o'xshatish va sifatlashlarni ko'rib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qo'llanilgan o'xshatishlar betakrorligi, jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi, unga zavq bag'ishlaydi. Bu esa yozuvchining tilimizni yashirin imkoniyatlari, o'xshatish hosil qiluvchi vositalarini yaxshi bilishidan dalolat beradi. Abdulla Qodiriy so'z san'atidan, tilimizdagi badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalangan. Romandan ko'chimlar va figuralarga istagancha misollar topish mumkin. Ayniqsa, o'xshatish va uning turlariga misollar rang-barangdir. Romandagi har bir personaj o'zga bir olam. Ularning nutqi va nutqining ravonligi ortiqcha so'z va gaplardan mutasnoligi tilimizning boyligini oshiradi. U, albatta, yangi so'z ayta oladi. Asarning badiiyliги juda kuchli berilgan. Til boyligini yuzaga chiqarishda uni ahamiyatliги va ta'sirchan bo'yoqlarga boyligi, o'xshatishga to'plangan misollardan ham ko'rinib turadi. Ish davomida leksik va grammatik tipdagi o'xshatishlarga ko'plab misollar to'plandi. Romanni o'qir ekanmiz, o'xshatishga ko'plab misollar uchramiz. Albatta, orginal, ya'ni badiiylik ufurib turgan yoki o'xshatish yaqqol namoyon bo'lgan misollar tahlilga olindi. Ular ikki guruhga ajratiladi:

1. Leksik vositalar bilan hosil bo'lgan o'xshatish;
2. Grammatik vositalar bilan hosil bo'lgan o'xshatish.

1. Leksik vositalar bilan hosil bo'lgan o'xshatishlar. O'xshatish hosil bo'lishida anchagina mustaqil va yordamchi so'zlar ishlatiladi:

a) kabi, singari, qadar ko'makchilari vositasida. Bunda predmetlar harakati holati bilan bog'liq bo'lgan bir-biriga yaqin belgilar qiyos qilinadi. Bu ko'makchi har doim o'xshatiladigan predmetni ko'rsatuvchi so'zlardan keyin keladi.

Bularni yozuvchi asarlari asosida ko'rib o'tamiz. Adibning " **O'tkan kunlar**" romani badiiy til mahoratining keng ko'lamli qirralarini aks ettirish namunasidir. Yozuvchi o'zining birinchi romanidayoq til xususiyatlari bilan badiiy asarga qo'yiladigan barcha talablarga javob bergan edi va roman tili sodda, bo'yoqdor, ifoda va tasvir kuchi jozibador edi:

*Musulmonqul o'z g'arazi yolida orada yo'q nizolarni qo'zg'ab, kuyavi Sheralixonni oldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, **qo'y kabi** yuvvosh Toshkand hokimi Sarimsoqbekni o'ldirib, o'rniga Azizbekdek zolimni belguladi va o'zini mingboshi deb e'lon qilib, aqlsiz bir go'dakni (Xudoyorni) xon ko'tarib el yelkasiga mindi(10-bet.)*

Bu o'rinda Musulmonqulning o'z manfaati yo'lida hech qanday yo'ldan qaytmasligini, hatto qabih maqsadini amalga oshirish uchun odam o'ldirish darajasigacha borish holatlariga guvoh bo'lamiz. Bu keltirilgan qisqagina misol orqali Azizbekni shu holda ham zolimligini, Sarimsoqbekni esa "qo'y kabi" yuvvosh ekanligini anglash mushkul emas. Sarimsoqbek begunoh, balki beozor insonligini ushbu keltirilgan parcha orqali ham bilib olsa, bo'ladi. Yozuvchi o'z qahramonlarini

<sup>96</sup> Махмудов Н. Ухшатишлар - образли тафаккур махсули. Узбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон.



shunday o'xshatishlar orqali tasvirlaganki, xuddi ularni ko'rib turgandek his qilasiz. Bu misolda ham leksik, ham grammatik o'xshatishlar bor. O'xshatishni yuzaga chiqarishda yozuvchining *kabi* yordamchi so'zi va *-dek* grammatik vositasidan unumli foydalanganligi ko'zga tashlanadi.

Sarimsoqbek - o'xshatish subyekt; qo'y- o'xshatish etaloni; o'ldirmoq semasi - o'xshatish asosi; *-kabi* - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi hisoblanadi. Azizbek - o'xshatish subyekt ham etaloni, *-dek* - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi, e'lon qilmoq- o'xshatish asosi. Boshqa qahramonlar ham o'ziga xos tarzda betakror o'xshatishlar vositasida berib o'tilgan.

Bir narsa boshqasiga aynan, butunligicha, o'xshatilganda, o'xshatish asosning qo'llanmasligi asosiy holatdir. Bunda aytish mumkinki, fotografik tasviriylik yuzga keladi, ya'ni o'xshatilgan narsa ko'z oldimizda gavdalanadi: *O'rtadan ko'b fursat o'tmadi, boyag'i uyqusirashyana takrorlandi:*

— «**Oy kabi**yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar... Uff»(13-bet)

Otabekning Kumushni ko'rgandan buyon o'zgarib qolish holatini muallif juda go'zal, mohirona berib o'tadi. Uning ichki kechinmalarini ochiq oydin emas, balki oddiy alahshirash orqali Hasanaliga, u vositasida esa kitobxon-o'quvchiga ko'rsata olgan. Bu bilan Kumushning naqadar go'zalligini, uning yuzini go'yoki oyga qiyos etilayotgan ekanligini bilib olish qiyin emas. Keyingi o'rinlarda esa Kumushbibining tavsifi kuchayib boradi:

*Kumushbibi ham ixtiyorlik, ixtiyorsiz bu kulgulikka tortilib, uning yuvoshqina iljayishidan yoqutdek lablari ostidagi **sadaf kabi** oq tishlari biroz ko'rinib qo'ydilar*(35-bet).

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, bu yerda ham leksik va grammatik vositalar birgalikda qo'llanilyapti. Kumushbibi - o'xshatish subyekt; yoqutdek va sadaf - o'xshatish etaloni; lablar hamda oq tishlar - o'xshatish asosi; *kabi* va *-dek* - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlaridir. Ushbu matnda biz ketma-ket kelgan o'xshatishlarni uchratdik. Bu yozuvchining mahoratli ekanligidan dalolat beradi. Ushbu o'rinda kelgan ketma-ket o'xshatishlar badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

*Bu kungi kech Otabek bilan Homidning hayot va mamot masalalarini o'zining qora quchog'ig'a olg'an qorong'i bir tun edi va bulardan qaysi birlarining so'ng soatlariyetkanligi shu **qorong'i tun kabi** qorong'i edi*(162-bet).

Otabek bilan Homidning o'tasidagi kurashni yozuvchi o'xshatishlar orqali berib, ularning qay birisi omon qolish holatini, xuddi qorongi tunga qiyos etgan. Bu misolda yozuvchi *kabi* o'xshatishni yuzaga keltiruvchi leksik vositadan foydalangan va "*qorong'i tun kabi*" birikmasi sifat so'z turkumiga aylanib, o'xshatish hosil qilishda ishtirok etgan.

An'anaviy o'xshatishlar og'zaki nutqda ko'p ishlatiladi, shu asosida yozuvchi tabiat tasvirini ham o'xshatishlar asosida berib o'tadi:





*Chinor shoxlari **tasbeh kabi** chizilg'an boyqushlar bilan to'lg'an. Ular oy nuridan uncha xursand emaslar, chunki oy yer yuziga kulib qaray boshlasa, ular boshlarini kaftlari ichiga oladirlarda, dum-dumaloq bo'lib siqilib ketadirlar(146- bet).*

An'anaviy o'xshatishlarni tasviriylik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Chinor shoxlariga kelib joylashgan boyqushlar go'yoki tasbehga o'xshatilmoqda. Bu esa yozuvchining o'xshatishlar borasidagi mohirona uslubidan dalolat berib turadi.

Adib ko'p hollarda harakatdagi yoki muayyan holatdagi o'xshatish etalonlarini tanlaydi. Bu harakat yoki holat ko'pincha sifatdosh yoki sifatdosh oboroti orqali ifodalanadi va bu sifatdosh yoki sifatdosh oboroti bevosita etalonni ifodalaydigan bo'lakka aniqlovchi bo'lib keladi:

*Oy bulutlar osng'a kirsas, ular **rohatlang'an kabi** chig'-chig'-chig', ki-ki-ki qilib sayrab ham yuboradirlar. Bu vaqt shu boyqushlar sayrog'i ichidan ingranish kabi bir tovush ham eshitilgandekboladir(146-bet).*

Oyning bulutlar orasiga kirish tarzini ko'rib turgan boyqushlarning keyingi holatini yozuvchi ularning sevinish, rohatlanishi deb tasvirlab, hatto bundan ularning xursandchilik ohanglarini ham aks ettiradi. Bu misolda o'xshatishning leksik va grammatik formalari ishtirok etgan va " rohatlangan kabi", eshitilgandek" birikmalarida ko'rinadi. Bu o'xshatishning ma'no-mazmuni shu qadar to'q va ta'sirchanki, Qodiriyning til sezgisidan, tilni qahramon ruhiyati va milliy tasavvur bilan uyg'unlashtira olishdan hayratga tushmaslik mumkin emas.

Xullas, o'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Bu muhim va keng qo'llanuvchi vosita tilimizda xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarining natijalari sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, badiiy asarda so'z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi teran va badiiy didining mahsuli sifatida yuzaga keladi. O'xshatishlar badiiy tasvir vositalarida keng o'rinni egallaydi. Ular vositasida yozuvchi uslubi, mahorati, dunyoqarashi, tasvirlash darajasini bilib olishimiz mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qobuljonova G. Metafora va o'xshatish. O'TA, 1999/ 5 son, 53b
2. Mahmudov N. O'xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son,19-24b
3. Шомаксудов А.,Расулов И., Кунгуров Р., Рустамов Х. Узбек тили стилистикаси. -Тошкент: 1974, 236- бет.
4. Кунгуров Р. Узбек тилининг тасвирий воситалари. -Тошкент: Фан; 1977